



Etymological analysis of the lexeme "foot/oyoq" in English and Uzbek

Gulru MAMADALIEVA¹

Fergana State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received November 2024

Received in revised form

10 December 2024

Accepted 25 December 2024

Available online

25 January 2025

Keywords:

Proto-Indo-European roots,
Turkic languages,
semantic development,
linguistic comparison,
works of Alisher Navoi,
cognitive linguistics,
metaphorical use,
cultural and social influence.

ABSTRACT

This article studies the etymological analysis of the words foot and oyoq, which are the nuclear lexemes of the concepts "FOOT/OYOQ" in English and Uzbek from linguistic, historical and cultural perspectives. The structural components of the concept, their internal forms, and historical evolution are examined. The origins of the words "foot" and "oyoq", their semantic expansion, and changes are discussed. The English term "foot" traces back to the Proto-Indo-European root and has represented various meanings over centuries, such as a unit of measurement and a part of the human body. In Uzbek, the term "oyoq" originates from ancient Turkic languages, reflecting the influence of diverse cultural and social factors on its development.

The article also highlights the poetic and metaphorical uses of "oyoq" in Alisher Navoi's works and ancient Turkic texts. The comparative analysis of the concepts demonstrates that the semantics of "foot/oyoq" are rooted in the physical object, while also conveying ideal and symbolic meanings such as support, movement, and foundation.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1/S-pp352-357>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ PhD student, Fergana State University. Teacher, Kokand University Andijan branch.
E-mail: guli.ravshanovna@gmail.com

Инглиз ва о'zbek tillarida foot/oyoq leksemasining etimologik tahlili

Kalit so'zlar:

proto-hind-yevropa ildizi,
turkiy tillar,
semantik rivojlanish,
lingvistik qiyoslash,
Alisher Navoiy asarlari,
kognitiv lingvистика,
metaforik qo'llanilish,
madaniy va ijtimoiy ta'sir.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada "FOOT/OYOQ" konseptlarining yadroviiy leksemasi bo'lmish foot va oyoq so'zlarining etimologik tahlili lingvistik, tarixiy va madaniy nuqtayi nazardan o'rganilgan. Konseptning tarkibiy qismlari, ularning ichki shakllari va tarixiy rivojlanishi tahlil qilinib, "foot" va "oyoq" so'zlarining kelib chiqishi, ma'nolarining kengayishi va semantik o'zgarishlari ko'rib chiqilgan. Ingliz tilida "foot" so'zi proto-hind-yevropa ildiziga asoslangan bo'lib, qadim zamonlardan uzunlik o'lchovi yoki odamning oyoq qism kabi turli ma'nolarni anglatar edi. O'zbek tilida "oyoq" so'zining kelib chiqishi qadimiy turkiy tillarga borib taqalib, uning rivojlanishida turli madaniy va ijtimoiy omillar ta'siri o'rganilgan. Maqolada, shuningdek, Alisher Navoiy asarlari va qadimiy turkiy manbalardan misollar keltirilib, "oyoq" so'zining poetik va metaforik qo'llanilishiga diqqat qaratilgan. Konseptning rivojlanishi va qiyosiy tahlili natijasida "foot/oyoq" so'zlarining semantikasi fizik obyekt bilan bog'liq holda ideal mazmunni ham ifodalay olishi ko'rsatib berilgan.

Этимологический анализ лексемы foot/oyoq в английском и узбекском языках

Ключевые слова:

протоиндоевропейские
корни,
тюркские языки,
семантическое развитие,
лингвистическое
сравнение,
труды Алишера Навои,
когнитивная лингвистика,
метафорическое
использование,
культурное и социальное
влияние.

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуется этимологический анализ слов foot и oyoq, являющихся ядерными лексемами концептов "FOOT/OYOQ" с лингвистической, исторической и культурной точек зрения. Анализируются составляющие концепта, их внутренние формы и историческое развитие, рассматриваются происхождение, расширение значений и семантические изменения слов "foot" и "oyoq." В английском языке слово "foot" имеет протоиндоевропейский корень и с древних времён обозначало различные понятия, такие как мера длины или часть ноги человека. Происхождение слова "oyoq" в узбекском языке восходит к древним тюркским языкам, при этом изучено влияние различных культурных и социальных факторов на его развитие. В статье также приводятся примеры из произведений Алишера Навои и древнетюркских источников, уделяется внимание поэтическому и метафорическому употреблению слова "oyoq." В результате исследования развития и сравнительного анализа концепта показано, что семантика слов "foot/oyoq" может выражать не только физический объект, но и идеальное содержание, связанное с ним.

Konsept tafakkur birligi sifatida yig'indisi konseptning nominativ maydoni sifatida belgilangan uning tildagi voqelanishini ta'minlovchi lisoniy vositalar orqali tasvirlanadi. Nominativ maydon bevosita konseptning o'zining nominatsiyalarini o'z ichiga olgani holda, turli muloqot vaziyatlarida konseptning mazmunini va unga bo'lgan munosabatni ochib beruvchi konseptning alohida kognitiv belgilarining nominatsiyalarini ham qamrab oladi [1]. Biz konsept faqat har biri uning bor-yo'g'i bir qisminigina ochib beruvchi lisoniy vositalar yig'indisi bilangina ifodalanishi mumkin degan tushunchaga tayanamiz [2].

Yu.S. Stepanovning fikricha, konsept tuzilmasida biri- ichki shakl, yoki etimologik belgi hisoblangan uchta komponent farqlanadi [3]. Etimologik lug'atlarga asoslangan holda tadqiq qilinayotgan konseptning asosiy etimologik belgisi aniqlanadi. FOOT konseptining etimologik tahlili o'rganilayotgan konseptning hind-yevropa lug'atining eng qadimgi qatlamiga mansub ekanligini ko'rsatadi. Bu esa uning tilda va nutqda uzoq yillardan beri yashab kelayotganiga ishora etadi. Ingliz tili onlayn Etimologik lug'atiga ko'ra (Online Etimological Dictionary of English), "foot" leksemasining qadimgi ingliz tilidagi umurtqali hayvon oyog'ining pastki qismi ma'nosini anglatgan "fot" shakli proto-hind-yevropa o'zagi ped-(oyoq)dan olingan proto-germancha fōts (shuningdek, qadimgi frizcha fot, qadimgi sakson tilidagi fot, qadimgi Norse fotr, daniyacha fod, shvedcha fot, gollandcha voet, qadimgi oliynemischa fuoz, nemischa fuß, gotcha fotuslar ham manba bo'lib xizmat qiladi)ga borib taqaladi. Feet ko'plik shakli i-mutatsiyaga misoldir.

Uzunlik o'lchovi sifatida qadimgi ingliz tilida odam oyog'ining uzunligi ishlatilgan (aniq uzunlik vaqti-vaqti bilan bilan o'zgarib turardi); bu qadim zamonlarda keng qo'llanilgan o'lchov birligidir. Ko'pincha shu ma'noda "foot" so'zi ko'plik shaklida qo'llaniladi. Hozirgi dyuym va fut XII asr ingliz cherkovlari (Flinders Petrie, "Induktiv metrologiya") o'lchovidan olingan, lekin o'rta asrlarda Angliyada futning eng keng tarqalgan uzunligi qadimgi O'rta Yer dengizi bo'ylab 13,2 dyuymli oyoq edi. Anglo-saksoncha fut esa ushbu birliklarning oralig'ida joylashgandi. Har uchala ham rimliklar tomonidan ishlatilgan o'lchov birliklariga mos keladi va ehtimol, uchala uzunlik ham anglo-saksonlar tomonidan roman-britonlardan o'zlashtirilgan. " Saksoncha birliklarga o'rta asrlardan o'tila boshlangani ehtimoli yuqori, chunki normanlar ishchi emas, balki hukmron sinf edilar." [4]

O'rta asrlardagi Paul's Foot (XIV asr oxiri) jumlasini Londondagi eski avliyo Pavel cherkovidagi ustunning poydevoriga o'yilgan o'lchov etalonini bildirar edi.

Metrik fut (kech qadimgi ingliz tili, xuddi shu ma'nodagi lotincha pes, yunoncha pous) odatda oyoqning bitta ko'tarilishi va bitta tushishini ifodalash uchun ishlatiladi; ba'zilar uchun bu vaqtni kuzatishni anglatga, boshqalar uchun raqs tushishni anglatadi.

O'rta asrda ingliz tilida foot shuningdek "odam"ni anglatga boshladi (1200 y.), non-foot- hech kim iborasi shundan paydo bo'ldi. 1200-yilga kelib, "yuksak yoki tik narsaning tubdagi yoki eng quyi qismi" ma'nosida ishlatila boshlandi. 1300-yildan esa "o'rinning, qabrning va h.k.larning quyi qismi" ma'nosiga ega bo'ldi.

"Piyoda" ma'nosidagi on foot iborasi 1300-yilda paydo bo'lgan bo'lsa, 1905-yilda "to get off on the wrong foot" – "noto'g'ri oyog'da o'rnidan turmoq" iborasi birinchi bor ishlatilgan; "to put one's best foot foremost" – "eng yaxshi oyoqni birinchi tashlamoq" birinchi bor 1849-yilda qayd etilgan (1596-yilda Shekspir "has the better foot before" – "oyoqlarining yaxshirog'ini birinchi tashlagan").

O'rta asr ingliz tilida *baxtsizlik keltiruvchi* ma'nosidagi *evil-foot* (adj.-sifat) jumlasida paydo bo'ldi.

To put (one's) foot in something – biror narsani adashtirib yubormoq iborasi 1823-yilga borib taqalsa, *to put one's foot in (one's) mouth*-(so'zma-so'z tarjimasi *oyog'ini og'ziga tiqmoq* ma'nosi *ahmoqona gap aytib qo'ymoq*, o'zbekchada *qovun tushirmoq* iborasiga mos keladi) iborasi 1942-yilda ilk bor qayd etilgan. *To have one foot in the grave* (bir oyog'i go'rda bo'lmoq) 1844-yilda, *My foot!* his-hayajonli iborasi esa ilk bor 1923-yilda qo'llangan va 1796-yilga borib taqaluvchi *My ass!* iborasining eyfemistik ko'rinishi bo'lishi mumkin.

O'zbek tilining etimologik lug'atiga ko'ra [5] OYOQ konseptining etimologik tahlili shuni ko'rsatadiki, *oyoq* oti qadimiy turkiy tildagi "qadamla" ma'nosini anglatgan *a:d-fe'*ning *ay-* shaklidan – (*a*)*q* qo'shimchasi bilan yasalgan [6]; o'zbek tilida *a* unlilari "ā" unlilariga almashgan: *ay+aq=ayayq ≥ āyāq*.

Maxmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarining indeks lug'atida oyoqni azaq deya nomlanganini ko'rishimiz mumkin.[7] Uning *azaqladi*-oyoq'iga urdi, *azaqlandi*-oyoqli bo'ldi, *azaqlinen*- oyoqli narsa kabi shakllari mavjud bo'lgan. Ushbu indeks lug'atda idish, kosa ma'nosidagi ayaq so'zi avval kelib, undan so'ng ayaq so'zi oyoq ma'nosini bildiruvchi so'z sifatida beriladi. *Ayaqchi* so'zi esa kulol ma'nosini bildiradi. Buning sababi kulolchilik dastgohini oyoqlar yordamida harakatga keltirilganligida deya tahmin qilishimiz mumkin. Agar shunday bo'lsa, kosa, idish ma'nosidagi *ayaq* so'zi ham "oyoq yordamida yasalgan" ma'nosini anglatib paydo bo'lgan deya olamiz. U holda ular omonimlar emas, balki biri ikkinchisining ma'nosidan paydo bo'lgan leksik-semantik variantlar degan xulosaga kelishimiz mumkin.

"Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati"da "oyoq" sozini "*ayoq/ayog*" shaklida qo'llanilganini ko'ramiz: *ayoq/ayog* – oyoq

Har soya harakatidin bag'rida tob,

*Va har **ayoq** unidin ko'ngilda iztirob* [8].

Ushbu lug'at Alisher Navoiy asarlarida "ayaq" so'zi bir necha leksik-semantik variantlarda ishlatilganini ko'rsatadi: **Ayoq** (2) – ohir, so'ng, intiho:

Bu hayoling keldi bahosil xayol,

*Balki boshdin to **ayoq** botil xayol.*

Ayoq (3)- poya, quyi, past:

*Taxt **ayog'i** sari solib takyagoh,*

Yotib erdi, boshi uzra keldi shoh.

Ayoq ostida qolmoq (jabr tortmoq, tepkılanmoq), *ayoq ostondin tortmoq* (borishni tark etmoq), *ayoq tortmoq* (do'stlikni, munosabatni uzmoq), *ayoq uzatmoq* (o'rin olmoq, joylashmoq) so'z birikmalarini ham ushbu izohli lug'atda uchratamiz.

Alisher Navoiy asarlaridan *ayoq* so'zi *qadah*, *jom*, *may* ma'nolarini

Tashna lablar bu vodiya ne bo'lg'ayki suv,

*ko'z yoshidur, dog'i o'tli lolalar jomi **ayog'*** [9] hamda *kosa* ma'nosini:

*Nasibi aning bir **ayoq** osh erur bas,*

Agar ganji Qorun erur muddaosi [10] anglatuvchi shaklga ham egaligini ko'ramiz.

Ayog' ichmoq- may, sharob ichmoq:

*Gar Navoiy bir **ayog'i**, gohi ichar g'am daf'ig'a,*

Zohid andin o'zni g'amgin tutsa ichding, emdi quy [11].

Alisher Navoiyning “Mahbub ul-Qulub” asaridagi “*Royi ersang, tut bu nafas yaxshi pos, har qo’yni o’z oyog’idan os*” [12] misrasi quyidagi ma’noga ega: “Royi ersang, tut bu nafas yaxshi pos”- agar xotirjam va osoyishta bo’lishni istasang, har nafasda ehtiyotkorlikni va yaxshi niyatni saqla. “Har qo’yni o’z oyog’idan os” -har kim o’z amali (yoki harakatlari) uchun mas’uldir. Ya’ni har kim o’z qilmishlari natijasini ko’radi va javobgarlikdan qochib qutula olmaydi. Bu didaktik mazmundagi misralar insonni o’z hayotiga va harakatlariga mas’uliyat bilan yondashishga, shuningdek, halol va oqilona yashashga undaydi. *Echkini ham, qo’yni ham o’z oyog’idan osarlar* maqoli XV asrda ham ishlatilganligi uning qadimiyligidan dalolat beradi.

Alisher Navoiy lirikasida oyoq komponentli somatik leksika alohida o’rin tutadi. *Yuz nopok erlardin yaxshiroq, pok xotunlar oyog’ining izi* [13] deya shoir nopok erkaklar pok ayollarning hatto oyoq izlariga ham teng emasligini aytadi. Hazrat Navoiy asarlarida *quyi, past* semalariga ega oyoq so’zi ishq ko’yida hokisorlik, itoat ramzlarini anglatadi:

Ayog’ing tufrog’ini o’psam basdur,

Bor ayog’ingni desam-tarki adab. [14].

Ko’nglimni itiga tu’ma qilg’g’il zinhor,

Jonimni dog’i ayla ayog’iga nisor [15].

Otlanib, boshimni raxshingning ayog’i ostig’a,

Tig’ birla solg’udek masti sarandoz aylasang [16].

Guldek yuzung islabon, dudog’ingni o’pay,

Yo’q-yo’q-ki, agar desang, ayog’ingni o’pay [17].

Ulki, iflosdin (muhtojlikdan) ayog’inda kafsh yo’l azmi chog’i yo’qtur oning, Shukr qildik boqib birav sori, ki, yururga ayog’i yo’qtur oning [18] misralari bilan shoir kiyarga poyabzaling yo’qligidan nolimaginki, yururga oyoqlari yoq insonlar ham bordir deydi. Demak, inson oyog’i shoir uchun imkoniyat va imkonsizlik ramzi ham hisoblanadi.

Oyoq inson axloqi, yurish-turishining xabarchisidir:

Ul vafo ahli ayog’idin nishon,

Sen vafosizlik sari domankashon [19].

Yana Devonu-lug’otit-turk asarining indeks lug’atiga yuzlanamiz. Bu yerda *but* (put) so’zi son, oyoq ma’nolarini anglatganligini ko’rish mumkin [20]. *Butiq* – otning oyoq terisini shilib olinib qilingan mesh; *butladi* – oyog’ini tishladi; *oyog’iga urdi*; *butlug’* – oyog’i bor, putlik, oyoqli; *ayoqchi* – soqiy, *ayoq* – may quyiladigan idish, *tay-tay-1*) bolalarning dastlabki qadam bosishi, yurishi; uyg’ur tilida taytaylatib mang’uzmoq-bolalarni qo’lidan ushlab yurgizmoq; 2) tay-tay so’zi xitoy (uyg’ur ham) tilida xonim, beka ma’nolarida ham ishlatiladi [21]. (xitoyliklar ayollarning oyoqlari qancha kichkina bo’lsa, ular shuncha chiroyli bo’ladi deb hisoblashgan va atayin bolaligidanoq maxsus kichkina poyabzallar kiydirish orqali ularning oyoqlarini o’sishiga yo’l qoyishmagan. Natijada voyaga yetgach ular mayda-mayda qadam tashlab yurishgan. Turkiy xalqlar (uyg’ur va o’zbek) orasida kichkina bolalarning birinchi qadamlariga nisbatan “toy-toy” so’zini ishlatilishi ularning yurishini shu ayollar (xitoy xonimlari)ning yurishiga o’xshatish orqali kirib kelgan bo’lishi mumkin.

Qadimiy turkiy tillarning aralash dialektida ot va fe’llar o’rtasida *d* tovushi kelib, *ayaq* so’zi *adaq* deb talaffuz etilgan [22]. U hozirda *odoq*, *adog’* shaklida “oxir”, “nihoya” ma’nolarini anglatadi.

“Muhabbatnoma” XV asr adabiy tilining yodgorligi bo’lib, unda *ayaqing o’pmakim* (oyog’ingni o’pmoq) jumlasini uchratamiz.

Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarida *Bo’ynida illati borning oyog’i qaltirar* maqoli keltiriladi.

Etimologik ma’lumotlar shuni ko’rsatadiki, *foot* va *oyoq* so’zlari ma’nolarining rivojlanishi aniq xususiyatlardan mavhumroq bo’lgan xususiyatlar tomon siljish asnosida sodir bo’lgan. Demak, shuni aytishimiz mumkinki, *foot* va *oyoq* so’zlarining semantikasi predmetning, jismoniy obyektning va shu ob’ekt bilan bog’liq bo’lgan ideal mohiyatning (asos, tayanch, harakat, tik turish, tayanish va harakatlanish) hissiy obraziga asoslanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Попова, З. Д. Когнитивная лингвистика. М.: 2007. 66-68 сс.
2. Кубрякова, Е. С. Язык и знание: на пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира [Текст] / Е. С. Кубрякова. М.: Языки славянской культуры, 2004. — 560 с.; Болдырев, Н. Н. Когнитивная семантика. Тамбов, 2000. 123 с.; Попова, З. Д. Когнитивная лингвистика. М.: 2007. 314 с.
3. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Школа "Языки русской культуры", 1997. 40-76 сс.
4. Petrie, W. M. F. [1877] 2010. Inductive Metrology: Recovery of Ancient Measures from the Monuments. Kessinger Publishing. ISBN 978-1164680628
5. Sh.Rahmatullayev, O’zbek tilining etimologik lug’ati (turkiy so’zlar), Toshkent: 2000.-250 b.
6. ЭСТЯ, I, 103; ПДП, 356; Devon, I, 112; DS, 27 b.
7. Девону-луғотит-турк, Индекс луғат.-Т:Фан. 1967, 13 b.
8. Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати, Тошкент: Фан, 1983.- 47 b.
9. Alisher Navoiy. Qit’alar, fardlar, ruboiylar, tuyuqlar. T.: G’. G’ulom , 1968. -16 b
10. Alisher Navoiy. Qaro ko’zim. T.: G’. G’ulom , 1988. -16 b.
11. Alisher Navoiy. Qit’alar, fardlar, ruboiylar, tuyuqlar. T.: G’. G’ulom , 1968. -79 b.
12. Navoiy asarlarining izohli lug’ati. 2-jild. Lison-ut tayr, -103 b.
13. Alisher Navoiy. Qit’alar, fardlar, ruboiylar, tuyuqlar. T.: G’. G’ulom , 1968. -79 b.
14. A.Navoiy. Qit’alar, fardlar, ruboiylar, tuyuqlar. T.: G’. G’ulom , 1968. -27 b.
15. Navoiy asarlarining izohli lug’ati. 2-jild. Lison-ut tayr, -103 b.
16. Девону-луғотит-турк, Индекс луғат.-Т: Фан, 1967. -80 б.
17. O’sha manba, -49 b.
18. Девону-луғотит-турк, Индекс луғат.-Т: Фан, 1967.-80 б.
19. <https://www.etymonline.com>